X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 2 030,7 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2021- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi 1 098,7 mlrd. so'mga yoki 2,0 martaga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar

	Foyda, zarar (-), mlrd. so'm	*2021- yil yanvar-fevraliga nisbatan %da*
Jami	**2 030,7**	**100,0**
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	19,2	
Ishlab chiqaradigan sanoat	1 997,1	98,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-52,5	
Qurilish	1,7	53,1
Savdo	23,5	77,1
Tashish va saqlash	-1,5	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0,9	
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	2,6	75,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	4,1	45,1
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	0,1	63,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3,7	2,2 m.
Boshqalar	31,8	

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (1 997,1 mlrd. so'm), savdo (23,5 mlrd. so'm) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashni (19,2 mlrd. so'm) amalga oshiruvchi korxonalarga to'g'ri keldi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foydaning asosiy o‘sishi “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ (204,9 mlrd. so‘m), “O‘zkimyosanoat” AJ (125,6 mlrd. so‘m), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi (51,3 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalar

	Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m	*2021- yil yanvar-fevraliga nisbatan %da*
Viloyat bo‘yicha:	**2 030,7**	**100,0**
shaharlar:		
Nurafshon	8,9	2,1 m.
Olmaliq	1 552,4	80,1
Angren	-20,5	
Ohangaron	42,1	123,8
Bekobod	222,5	10,5 m.
Chirchiq	57,6	2,9 m.
Yangiyo‘l	7,7	4,2 m.
tumanlar:		
Oqqo‘rg‘on	2,2	3,1 m.
Ohangaron	-34,9	
Bekobod	0,1	14,3 m.
Bo‘stonliq	44,2	61,4 m.
Quyi Chirchiq	-0,6	
Zangiota	72,1	14,2 m.
Yuqori Chirchiq	-3,6	
Qibray	24,9	138,4
Parkent	0,8	183,1
Pskent	4,1	113,9
O‘rta Chirchiq	2,4	2,1 m.
Chinoz	6,1	4,4 m.
Yangiyo‘l	15,6	4,9 m.
Toshkent	26,6	125,9

Foydaning pasayishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ (- 505,6 mlrd. so‘m), O‘zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi (- 38,8 mlrd. so‘m), Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi (- 3,9 mlrd. so‘m), tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Olmaliq shahar – 1 554,3 mlrd. so‘m (jami foydaning 76,2 %i), Bekobod shahar – 222,6 mlrd. so‘m (10,3 %), Zangiota tumani – 76,9 mlrd. so‘m (3,6 %) va Chirchiq shahar – 65,1 mlrd. so‘m (3,0 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Zararlar. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida 64 ta korxona va tashkilotlar 123,1 mlrd. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 30,0 mlrd. so‘m (jami zararning 24,4 %i), “O‘zkimyosanoat” AJ – 7,0 mlrd. so‘m (5,7 %), O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi – 3,0 mlrd. so‘m (2,5 %) tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan %da)



2022- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar summasi*	
		mln. so‘m	*jamiga nisbatan %da*
Jami	**64**	**123 082,0**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	27	34 224,4	27,8
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash	7	65 868,1	53,5
Qurilish	2	478,4	0,4
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	13	14 174,5	11,5
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1	227,9	0,2
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	1	332,3	0,3
Boshqalar	13	7 776,4	6,3

2022- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan %da)



Zararning asosiy qismini, ya'ni 65 868,1 mln. so'mi (53,5 %) elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hamda 34 224,4 mln. so'mi (27,8 %) ishlab chiqaradigan sanoat sohalariga to'g'ri keladi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, %da*	*Zarar summasi, mln. so'm*
Viloyat bo'yicha:	**64**	**100,0**	**123 082,0**
shaharlar:			
Olmaliq	4	6,3	1 902,2
Angren	12	18,3	45 940,4
Ohangaron	4	6,3	778,8
Bekobod	1	1,6	103,8
Chirchiq	4	6,3	7 553,4
Yangiyo'l	4	6,3	2 314,5
tumanlar:			
Ohangaron	2	3,1	35 345,1
Bo'stonliq	3	4,7	1 281,2
Quyi Chirchiq	1	1,6	635,7
Zangiota	8	12,5	4 836,7
Yuqori Chirchiq	4	6,3	9 184,9
Qibray	4	6,3	7 634,3
Parkent	2	3,1	21,6
O'rta Chirchiq	1	1,6	6,8
Chinoz	4	6,3	886,1
Yangiyo'l	4	6,3	4 273,0
Toshkent	2	3,1	383,5

Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]

2022- yil 1- mart holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 13 432,1 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgani 470,6 mlrd. so‘mni yoki jami qarzdorlikning 3,5 %ini tashkil etdi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2021- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 96,6 %ga ko‘paydi va jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 151,3 %ni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, debitor qarzdorligi yuqori ko‘rsatkich Olmaliq shahar – 2 792,7 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 20,8 %i), Bekobod shahar – 2 644,1 mlrd. so‘m (19,7 %), Qibray tumani – 1 489,1 mlrd. so‘m (11,1 %) va Zangiota tumani – 1 255,7 mlrd. so‘m (9,3 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mlrd. so‘m	*undan:*			*Ichki idoraviy qarzlardan tashqari qarzdorlik*
		xaridor va buyurt-machilar	*etkazib beruvchi va pudratchi-larga berilgan avanslar*	*ichki idora-viy*	
Jami:	**470,6**	**411,1**	**13,6**	**20,7**	**449,9**
Ishlab chiqaradigan sanoat	178,4	162,9	11,5	1,4	176,9
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’min- lash va havoni	191,9	186,8	0,7		191,9
Qurilish	0,5	0,1	0,0	0,4	0,1
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	3,6	3,5	0,1		3,6
Tashish va saqlash	12,6	0,2	0,0		12,6
Boshqalar	83,6	57,6	1,3	18,9	64,8

[1)] *Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2022- yil 1- mart holatiga jami debitor qarzdorligi 8 066,6 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 60,1 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 162,7 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 34,6 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati – 2 573,2 mlrd. so‘m (31,9 %), “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati – 2 558,0 mlrd. so‘m (31,7 %), “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati – 930,6 mlrd. so‘m (11,5 %), “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati – 541,2 mlrd. so‘m (6,7 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining debitor qarzdorlikdagi eng ko‘p o‘sishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida – 191,5% (1 336,1 mlrd. so‘m), “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatida – 197,5 % (471,3 mlrd. so‘m) kuzatildi.

Debitor qarzdorlik “O‘zdonmahsulot ” aksiyadorlik jamiyatida – 2,7 martaga (- 26,0 mlrd. so‘m), “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyatida – 41,6 %ga (- 25,0 mlrd. so‘m) kamaygan.

2022- yil 1- mart holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 16 832,1 mlrd. so‘mni, undan muddati o‘tgani 437,5 mlrd. so‘mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 2,6 %ini tashkil etdi.

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik 2021- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,2 %ga ko‘paygan hamda jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 145,8 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2022- yil 1- mart holatiga jami kreditor qarzdorligi 10 130,9 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 60,2 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 47,9 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 10,9 %ni tashkil qildi

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik hajmi 64,6 mlrd so‘mga, shu jumladan “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida – 59,1 mlrd so‘mga kamayib, viloyat bo‘yicha jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 91,6 %ini tashkil etdi.

2022- yil 1- mart holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi
(jamiga nisbatan %da)



2022- yil 1- mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mlrd. so‘m	*undan:*				*Mudda-ti o‘tgan qarzdorlik-ning ulushi, %da*
		yetkazib beruvchi lar va pudrat-chilarga	*Byud-jetga to‘lov-lar*	*davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar*	*ichki idora-viy*	
Jami	**437,5**	**312,9**	**2,3**	**1,5**	**38,1**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	71,4	11,7	2,2	-	38,1	16,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	357,4	294,8	-	1,5	-	81,7
Tashish va saqlash	1,2	0,1	-	-	-	0,3
Boshqalar	7,5	6,3	0,1	-	-	1,7

Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlikka nisbatan o‘sishi

	Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi	
	mlrd. so‘m	*debitorga nisbatan %da*
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	3 155,1	44,8
“O‘zavtosanoat” AJ	506,3	51,7
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	69,7	87,9
“O‘zpaxtasanoat” AJ	9,9	51,4
“O‘zbekneftgaz” AJ	6,1	85,0

Jami kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati – 3 155,1 mlrd. so‘m (44,8%), “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati – 506,3 mlrd. so‘m (51,7 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati – 69,7 mlrd. so‘m (87,9 %), “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati – 9,9 mlrd. so‘m (51,4%) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bunday holatlar korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, yuqori kreditor qarzdorlik miqdori Olmaliq shahar – 6 077,3 mlrd. so‘m (36,1 %), Zangiota tumani – 1 619,3 mlrd. so‘m (9,6 %) va Chirchiq shahar – 1 583,9 mlrd. so‘m (9,4 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi, kreditor qarzdorlikning nisbatan past ko‘rsatkichlarini Oqqo‘rg‘on – 4,5 mlrd. so‘m (0,05 %), Bekobod – 8,5 mlrd. so‘m (0,07 %) va Quyi Chirchiq – 12,5 mlrd. so‘m (0,09 %) tumanlarida ko‘rish mumkin.